



## O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI ROE KO'RSATKICHI ORQALI TAHLIL QILISH

PhD *Xannayev Sherzod*  
Tashkent International University  
ORCID: 0009-0004-0768-2814  
[sherzod\\_khannaev@outlook.com](mailto:sherzod_khannaev@outlook.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekiston tijorat banklarining ustav kapitalidan foydalanish samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkich bo'lgan kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichini tahlil qilishga qaratilgan. 1999-2023 yillar oralig'ida mamlakatda faoliyat yuritgan tijorat banklari to'rt guruhga ajratilgan holda mulkchilik shakli bo'yicha ROE o'rtasidagi farqlar o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar eng yuqori o'rtacha ROEga ega bo'lgan bo'lsa, davlat bevosita egalik qiluvchi banklar eng past darajadagi kapital rentabelligini namoyon etdi. Xususiy banklar yuqori darajada tebranuvchanlikka ega bo'lib, bu ularning faoliyatida ortiqcha xavf mavjudligini ko'rsatadi. Xorijiy banklarning kapitaldan foydalanish samaradorligi esa barqaror bo'lib, ular tahlil davrining so'nggi yillarida ijobiy o'sishni namoyish etdi. Ushbu tadqiqot tijorat banklarining samaradorligini oshirishga qaratilgan siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** banklar samaradorligi, kapital rentabelligi, ROE, tijorat banklari, moliyaviy ko'rsatkichlar, bank boshqaruvi, moliyaviy tahlil, O'zbekiston banklari.

## АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПОКАЗАТЕЛЬ ROE

PhD *Ханнаев Шерзод*  
Tashkent International University

**Аннотация.** В данной статье рассматривается показатель рентабельности капитала (ROE) как ключевой индикатор эффективности коммерческих банков Узбекистана. Исследование анализирует различия в показателе ROE среди четырех типов собственности банков в период с 1999 по 2023 год. Результаты исследования показывают, что банки с косвенной государственной собственностью имели наивысшее среднее значение ROE, тогда как банки с прямым государственным участием демонстрировали наименьшую рентабельность капитала. Частные банки отличались высокой волатильностью, что указывает на повышенный уровень риска в их деятельности. В то же время иностранные банки показали стабильную эффективность использования капитала с тенденцией к улучшению в последние годы. Данное исследование предоставляет полезную информацию для разработки стратегий и политики, направленных на повышение эффективности коммерческих банков в Узбекистане.

**Ключевые слова:** эффективность банков, рентабельность капитала, ROE, коммерческие банки, финансовые показатели, управление банком, финансовый анализ, банки Узбекистана.

## ANALYZING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN THROUGH THE ROE INDICATOR

PhD Xannayev Sherzod  
Tashkent International University

**Abstract.** *This article focuses on analyzing the return on equity (ROE) indicator as a key measure of the efficiency of commercial banks in Uzbekistan. The study examines differences in ROE across four types of bank ownership structures for the period 1999-2023. The findings indicate that banks with indirect state ownership had the highest average ROE, whereas those with direct state ownership showed the lowest capital profitability. Private banks exhibited high volatility, suggesting a higher risk profile in their operations. Meanwhile, foreign banks demonstrated a stable level of capital efficiency, with an improving trend in recent years. This research provides insights into policies and strategies aimed at enhancing the efficiency of commercial banks in Uzbekistan.*

**Keywords:** *bank efficiency, return on equity, ROE, commercial banks, financial indicators, bank management, financial analysis, Uzbekistan banks.*

### Kirish.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini ko'rsatuvchi yana bir moliyaviy ko'rsatkich ROE ko'rsatkichi bo'lib, u ham bank menejmenti bank aktivlaridan, to'g'rirog'i, aktivlardan majburiyatlar chegirilgan qismi, ya'ni kapitaldan qanchalik samarali foydalanayotganligini anglatadi. Banklar uchun qoniqarli darajadagi ROE ko'rsatkichi miqdorini topish uchun bank sektori uchun normal hisoblangan ROE ko'rsatkichi o'rtachasini topish kerak bo'ladi. Odatda, investorlar uchun S&P 500 indeksining uzoq muddatli o'rtachasi, ya'ni 14% ga yaqin bo'lgan ROE ko'rsatkichi miqdori qoniqarli, 10% dan past ROE ko'rsatkichi qoniqarsiz hisoblanadi (Fernando, 2024). S&P 500 indeksi iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalarni o'z ichiga olgani uchun ushbu ko'rsatkichni banklar uchun tadbiiq etish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Shuningdek, ushbu indeks AQSHda listingdan o'tgan korxonalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda 1999-2023 yillarda faoliyat yuritgan banklarning o'rtacha ROE ko'rsatkichi 11,8% atrofida bo'lgan. 1999-2015-yillar oralig'idagi butun dunyodagi banklarning o'rtacha ROE ko'rsatkichi 13,6% ga teng bo'lgan (Stlouisfed.org., 2015). Quyidagi rasmdan ko'rish mumkinki, ushbu davrda O'zbekistonda faoliyat yuritgan banklarning o'rtacha kapital qaytimi dunyodagi o'rtachadan yuqori bo'lgan. Kapital qaytimi yuqoriligi bir tomondan bank biznesi jozibadorligini anglatadi, ikkinchi tomondan O'zbekistondagi bank biznesi riskining butun dunyodagi o'rtachaga qaraganda sezilarli darajada yuqoriligini anglatadi. AQSHda ushbu davrda faoliyat yuritgan banklar o'rtacha ROE ko'rsatkichi 10,62% ga teng bo'lgan. 1999-yildan global moliyaviy inqirozgacha bo'lgan davrda AQSH banklarining o'rtacha ROE ko'rsatkichi 14,6% bo'lgan bo'lsa, 2007 dan 2018-yilgacha bo'lgan davrdagi o'rtachasi 8% ga teng bo'lgan (Federal Reserve Bank of St. Louis and Federal Financial Institutions Examination Council (US) (n.d.).

Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tgan yoki o'tish davrida bo'lgan davlatlar bank tizimidagi ROE ko'rsatkichini O'zbekiston bank tizimidagi ROE ko'rsatkichi bilan solishtirish maqsadga muvofiq bo'lib, Xitoy banklarining 1999-2017-yillardagi o'rtacha ROE ko'rsatkichi 15,4% ga teng bo'lgan (Stlouisfed.org., 2021). Ushbu davrda Rossiyada faoliyat yuritgan banklarning o'rtacha ROE ko'rsatkichi 12,6% ga teng bo'lgan bo'lsa (Stlouisfed.org., 2021), Qozog'iston banklariniki esa 18,6% ga teng bo'lgan (Stlouisfed.org., 2021). Ammo, Qozog'iston banklari ROE ko'rsatkichi yuqori darajada beqaror bo'lib, bu Qozog'istonda bank biznesida risk darajasi O'zbekistondagidan yuqoriroq ekanligi kelib chiqadi. Xitoy va Rossiyada kapitaldan foydalanish samaradorligi O'zbekistondagidan past bo'lgan holda risk darajasi ham pastroq

ekanligi kelib chiqadi. Ammo, Rossiya banklaridagi kapitaldan samarali foydalanish darajasi Qozog'iston va O'zbekiston banklaridagi kabi dunyo banklari o'rtachasidan yuqoriligidan sobiq sovet davlatlarida bank biznesi riski dunyodagi o'rtachadan yuqoriligi kelib chiqadi. Rossiya-Ukraina urushidan boshlangandan so'ng ushbu ko'rsatkich yanada yomonlashishi kuzatilgan. Bu albatta Rossiya iqtisodiyotiga sanksiyalarning joriy qilinishi hamda bir qator iqtisodiy cheklovlarining kiritilishi bilan bog'liq. Ushbu cheklovlar O'zbekiston banklariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Chunki mamlakatimizning muhim savdo sherigi sifatida Rossiyaga joriy qilingan cheklovlarining salbiy ta'sirini bizning bank tizimimizga ham vaqt o'tishi bilan tarqalishini kuzatayapmiz. Kapital qaytimi yuqoriligi kapitaldan samarali foydalanishni bildirish bilan birga banklar ko'proq qarz mablag'lari hisobiga foyda ko'rayotgan bo'lishi mumkinligini bildiradi. Qarz mablag'larining ko'payishi banklarning defolt bo'lish riskini oshiradi va investorlar investitsiyalari uchun yuqoriroq qaytim olishni hohlashadi.

### Adabiyotlar sharhi.

O'z kapitalining rentabelligi (ROE) bank faoliyatida kapital taqsimoti va tavakkalchilikka ta'sir qiluvchi muhim ko'rsatkichlardan biridir (Moussu & Petit-Romec, 2014). So'nggi tadqiqotlar banklarda ROEga ta'sir qiluvchi turli omillarni o'rganib chiqdi. Chidananda va boshqalar (2024) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda Hindiston davlat banklarida P/E nisbati, qarz kapitali nisbati, sof foyda marjasi va ROE o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlik borligini korsatdi. Giudice va boshqalar (2016) tadqiqotiga ko'ra, Internet of Things (IoT) xizmatlarini taklif qilish, keng qamrovli ipoteka krediti va an'anaviy investitsiya xizmatlari Evropa banklarida yuqori ROEga yordam berishini ko'rsatdi. Biroq, ROEga haddan tashqari e'tibor berish haddan tashqari yuqori risk darajasiga va aksiyadorlar uchun qiymatni yo'q qilishga olib kelishi mumkin (Moussu & Petit-Romec, 2014). Islom banklarida esa Hermina & Suprianto (2016) tadqiqotlarida operatsion samaradorlik koeffitsienti ROEga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida aniqlandi, ammo kapitalning etarlilik koeffitsienti (CAR), muammoli kreditlar (NPL) va kreditlarning depozitlarga nisbati (LDR) sezilarli ta'siri yo'qligini ko'rsatdi. Ushbu ilmiy natijalar turli kontekstlarda bank ishida ROE tahlilining murakkabligini ta'kidlaydi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Banklar samaradorligini hisoblash uchun keng qo'llaniladigan yana bir an'anaviy metoddagi ko'rsatkich bu ustav kapitalga nisbatan daromad hisoblanadi. Ustav kapitalga nisbatan daromad aksiyadorlarning mablag'lariga nisbatan foydaliligini o'lchaydi. Uning qanchalik yuqori darajada bo'lishi aksiyadorlar kapitalidan bank menejerlari shunchalik samarali foydalanayotganini anglatadi.

$$ROE = \left( \frac{\text{Sof Daromad}}{\text{Aksiyadorlar Kapitali}} \right) \times 100$$

Yuqorida keltirilgan formula yordamida O'zbekiston bank tizmida 1999-2023 yillarda faoliyat yuritgan tijorat banklari ROE ko'rsatkichi hisoblandi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston tijorat banklari samaradorligini baholash uchun 1999-2023 yillarda mamlakatimiz hududida faoliyat yuritgan barcha tijorat banklari tanlandi. Samaradorlikni baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar banklarning yillik hisobotlaridan olindi. Banklar samaradorligi Xannayev (2019) ga asosan mulkchiligiga ko'ra 4 ta guruhga ajratilgan holda tahlil qilindi. Birinchi guruhdagi banklar davlat bevosita egalik qiluvchi banklar bo'lib, ushbu banklardagi davlat ulushi 100%. Ikkinchi guruhga davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar, ya'ni davlat ulushi 100% bo'lmagan va davlat ulushi ayrim qo'mita yoki vazirliklar orqali bo'lgan tijorat banklari kiritildi. Ushbu guruhga kiruvchi banklar umumiy holda aksiyadorlik tijorat

banklari deb nomlandi. Uchinchi guruhdagi banklar xususiy banklar bo'lsa, to'rtinchi guruhdagi banklar xorijiy kapital ishtirokidagi banklardir.

Quyidagi jadvalda ushbu banklarning ROE ko'rsatkichi tasviriy statistikasi keltirilgan.

1-jadval

*Banklarning ROE ko'rsatkichi tasviriy statistikasi, 1999-2023 y.y.*


Mulkchilik shakli	Soni	O'rtacha	Std.og'	Min.	25%	50%	75%	Maks.
Aksiyadorlik tijorat banki	218	17.20	14.93	-41.17	8.41	14.92	24.60	79.04
Chet el banki	95	14.71	15.35	-44.45	3.70	16.36	23.04	58.86
Davlat tijorat banki	107	9.57	18.94	-74.16	3.49	9.35	15.75	120.99
Xususiy tijorat banki	251	6.84	232.02	-3637.83	6.33	18.09	33.06	193.07
<b>Barcha Banklar</b>	<b>671</b>	<b>11.76</b>	<b>142.37</b>	<b>-3637.83</b>	<b>5.63</b>	<b>14.54</b>	<b>25.73</b>	<b>193.07</b>

Jadvalda keltirilgan o'rtachalar tahliliga qaraydigan bo'lsak, davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar o'rtacha ROE ko'rsatkichi tahlil davrida eng yuqoir darajada bo'lgan. Xususiy banklarning ROE ko'rsatkichi esa aksincha eng past darajada bo'lgan. Davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari o'rtacha ROEga ko'ra xususiy banklardan yaxshiroq, ammo xorijiy banklardan pastroq darajada davlat kapitalini boshqargan. Ammo, davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari umumiy davrdagi o'rtachadan xususiy banklar kabi past darajada ROE ko'rsatkichiga ega bo'lgan.

Jadvaldagi standart og'ishlarga e'tibor bergadigan bo'lsak, xususiy banklarda noodatiy tarzda katta ekanligini ko'rish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, xususiy banklar bo'yicha statistik kuzatuvlarda ekstrim kuzatuvlar mavjud. Buni isbotini minimum va maksimumlar telshirish orqali ishonch hosil qilish mumkin. Shuningdek, medianalarga e'tibor beradigan bo'lsak, xususiy tijorat banklari medianasi boshqa mulkchilik shakliga ega banklar medianasidan sezilarli darajada katta ekanligini ko'rish mumkin. Bundan kelib chiqadiku, tahlillarni amalga oshirishda kuzatuvlarda mavjud bo'lgan ekstrim kuzatuvlarni tashlab yuborish kerak bo'ladi. Bunday qilinmasligi, tahlil xulosalarini siljitib yuborishi mumkin. Medianalar tahliliga ko'ra, xususiy banklar eng yuqori, keyingi o'rinlarda xorijiy va aksiyadorlik tijorat banklari hamda oxirigi o'rinda davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari ekanligini ko'rish mumkin.


Quyidagi rasmda ekstrim chetki kuzatuvlar tashlab yuborilgandan keyin ROE ko'rsatkichi yillar kesimida va mulkchilik shakliga ko'ra keltrilgan. Chetki kuzatuvlarning umumiy ma'lumotlar bazasidan olib tashlanmasaligi ma'lumotlarning statistik jihatdan xato xulosalar berilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqda o'rtacha bilan bog'liq xulosalar o'z ishonchliligini yo'qotadi. Chetki kuzatuvlarni aniqlash va ularni tashlab yuborishda keng tarqalgan usul normal taqsimotning z-qiymatlari asosida amalga oshirildi? Ya'ni kvartillararo farqdan 3 standart og'ish uzoqlikda joylashgan qiymatlar ma'lumotlar bazasidan tashlab yuborildi. Bu o'z navbatida natijalarning statistik jihatdan sog'lom bo'lishi oshiradi hamda ishonchliligini oshiradi.

Quyidagi rasmdan ko'rish mumkinki, ROE ko'rsatkichi 2006-2016 yillarda nisbatan barqaror darajada bo'lgan. Tahlil davrining boshida 1999-2005 yillarda barcha banklar ROE ko'rsatkichi beqaror bo'lgan hamda barcha banklar ROE ko'rsatkichi deyarli bir xil yo'nalishda harakat qilgan. 2016 yildan keyingi davrda ham umumiy banklar ROE ko'rsatkichida biroz pasayish kuzatilgan. Ammo, xorijiy banklar, davlat bevosita egalik qiluvchi banklar va xususiy banklar, davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar ROE ko'rsatkichi bo'yicha ikki guruhga ajralib boshlagaini rasmdan ko'rish mumkin. Oradagi bo'shliq 2023-yilga kelib xorijiy banklarning yuqori ROE guruhiga qo'shilishni boshlashi bilan ozroq toraygan.



1-rasm. ROE ko'rsatkichi, 1999-2023-yillar


Yana bir qiziq holat, 1999-2008 yilgacha bo'lgan davrda davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari va xorijiy banklar o'rtacha ROE ko'rsatkichi bir xil yo'nalishda harakat qilgan, ya'ni ularning korrelyatsiyasi musbat ishoraaga ega bo'lganligini rasmdan ko'rish mumkin, global moliyaviy inqirozdan so'ng esa ushbu ikki guruhdagi banklar ROE ko'rsatkichi qarama-qarshi yo'nalishda harakat qilgan va ularning korrelyatsiyasi manfiy ishoraga ega bo'lgan.



2-rasm. Mulkchilik shakliga ko'ra ROE ko'rsatkichi, 1999-2023 y.y.



Yuqoridagi rasmda tijorat banklarining mulkchilik shakliga ko'ra quti grafigi keltirilgan bo'lib, unda chetki kuzatuvlar tashlab yuborilgan. Rasmdan xususiy banklar ROE ko'rsatkichi yuqori tebranuvchanlikka ega bo'lganligini hamda mediana boshqa guruhdagi banklardan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bu albatta, bozorga yangi xususiy banklar kirib kelishi va ayrimlarini bozorni tark etishi bilan bog'liq. Davlat ulushi mavjud banklarda bunday yuqori darajada tebranish ROE bilan kuzatilmagan. Bu bir tomondan bank kapitaldan samarali foydalanish keskin o'zgarishlardan xoli ekanligini anglatadi ikkinchi tomondan esa ushbu to'plamlardagi banklar sonida katta o'zgarishlar kuzatilmagan. Shuning uchun ham davlat ulushi mavjud banklarning ikkinchi va uchinchi kvartillari orasidagi kuzatuvlar oraliqi qisqaroq. Ya'ni davlat bevosita egalik qiluvchi banklarda taqriban 5-15% oraliqda bo'lgan bo'lsa, davlat bilvosita egalik qiluvchi banklarda ushbu ko'rsatkich 10-25% oraliqida bo'lgan. Xususiy banklarda ushbu ko'rsatkich 5-30% atrofida bo'lgan bo'lsa, xorijiy banklarda esa 5-25% atrofida bo'lgan.




3-rasm. ROE ko'rsatkichi heatmapi, 1999-2023 y.y.

Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki, davlat bevosita egalik qiluvchi banklar deyarli butun tahlil davrida ko'kish rangda bo'lgan, ya'ni 10% dan past darajada ROEga ega bo'lgan. Ayniqsa 2017-yildan so'nggi davrda 5% atrofida bo'lgan. Xuddi shunday xorijiy banklarda ham 2018 yildan so'ng ko'kish rangga ega bo'lib boshlagan.

Davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar 2017-yildan so'ng barqaror ROE ga ega bo'la boshlagan. Rasmdagi rangning bir xillashganini ko'rish mumkin. Xususiy banklarda esa umumiy tahlil davrida o'rtacha olganda 15% dan yuqori bo'lgan bo'lsada, biroz yuqori tebranish kuzatilgan. Ushbu banklarda global iqtisodiy inqiroz va pandemiya davrida o'rtacha ko'rsatkich sezilarli darajada pasaygan.

Taqsimot tahlilida ko'zga yaqqol tashlanadigan holat ROE ko'rsatkichining 0-25% atrofida bo'lganligi bo'lib, 0% dan kichkina qiymatlar kuzatilgan bo'lsada, ularning ulushi juda kam hamda minimum -20% gacha pasayganligini ko'rish mumkin. ROE ko'rsatkichining 30% dan oshgan qismida yana kuzatuvlar soni pasayganligini ko'rish mumkin.



4-rasm. ROE taqsimoti

### Xulosa va takliflar.

O'zbekiston tijorat banklarining 1999-2023 yillar davomida ROE ko'rsatkichi bo'yicha amalga oshirilgan tahlillari banklarning samaradorligi mulkchilik shakli va boshqaruv qobiliyatiga bog'liq ekanligini tasdiqladi. Davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar yuqori o'rtacha ROEga ega bo'lgan bo'lsa, davlat bevosita egalik qiluvchi banklar past darajadagi samaradorlikni namoyon etdi. Xususiy banklar yuqori darajadagi tebranuvchanlik va potentsial xavflar bilan ajralib turadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat ulushi mavjud banklarda kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish uchun menejmentni takomillashtirish va moliyaviy boshqaruvni optimallashtirish zarur. Ushbu maqola tijorat banklarining kelgusi faoliyatini rejalashtirishda va samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

### Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Chidananda H L, Dr. et al. (2024) "Analyzing Return on Equity (ROE) Dynamics in Banking: Insights from P/E Ratio, Debt Equity Ratio, and Net Profit Margin." *International Journal For Multidisciplinary Research* : n. pag.

Federal Reserve Bank of St. Louis and Federal Financial Institutions Examination Council (US) (n.d.). Return on Average Equity for all U.S. Banks. [online] FRED, Federal Reserve Bank of St. Louis. Available at: <https://fred.stlouisfed.org/series/USROE>.

Fernando, J. (2024). Return on Equity (ROE) Calculation and What It Means. [online] Investopedia. Available at: <https://www.investopedia.com/terms/r/returnonequity.asp>.

Giudice, Manlio Del et al. (2016) "The bank of things: An empirical investigation on the profitability of the financial services of the future." *Bus. Process. Manag. J.* 22 (2016): 324-340.

Hermina, Rida and Edy Suprianto. "Analisis Pengaruh Car, Npl, Ldr, Dan Bopo Terhadap Profitabilitas (ROE) Pada Bank Umum Syariah (Studi Kasus Pada Bank Umum Syariah di BEI 2008 – 2012)".

Stlouisfed.org. (2015). Bank's Return on Equity for World (DISCONTINUED). [online] Available at: <https://fred.stlouisfed.org/series/DDEI061WA156NWDB>

Stlouisfed.org. (2021). Bank's Return on Equity for China. [online] Available at: <https://fred.stlouisfed.org/series/DDEI06CNA156NWDB>.

Stlouisfed.org. (2021). Bank's Return on Equity for Kazakhstan. [online] Available at: <https://fred.stlouisfed.org/series/DDEI06KZA156NWDB>.

Stlouisfed.org. (2021). Bank's Return on Equity for Russian Federation. [online] Available at: <https://fred.stlouisfed.org/series/DDEI06RUA156NWDB>.

Ханнаев, Ш. "Турли мулкчилик шаклидаги банклар фаолияти самарадорлиги таҳлили. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 1 (39), 1-15." Иқтисодиёт Ва Инновацион Технологиялар 1.39 (2019): 1-15.